

LANDSHAFTLARNI TASNIFLASH HAQIDA TUSHUNCHALAR, FARG‘ONA OKRUGI LANDSHAFTLARI

Ixvoldinova Fotimaxon Nu‘manjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining landshaftlarining ichki tuzilishi, ularning xilma-xilligi, yoyilmalarning vujudga kelishi va shakllanish qonuniyatlari, yoyilma landshaftlarning shakllanishi, tarqalishi va o‘ziga xos xususiyatlari, Farg‘ona hududidagi landshaftlarning morfologik tabaqalanishi, landshaft tuzilmalarining chegaralari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: landshaftlar, litologik asos, morfologik tuzilish, gidrologik omillar, landshaftlar tuzilishi, morfolitogen asos, tuproq.

KIRISH

Landshaftlarning ichki tuzilishidagi ichki xilma-xillik va muvofiqlik uning morfologik tuzilishi hisoblanib, pozitsion joylashuvi, geologik-geomorfologik omillar ta'sirida makoniy va vaqt ko'lamida tabaqalanadi. Ko'pchilik olimlarning e'tirof etishiga ko'ra landshaftlarning ichki ya'ni morfologik tabaqalanishida geologik-geomorfologik omillar asosiy o'rinni egallaydi. Ayniqsa, litologik asos yetakchi omil sifatida iqlimiy, gidrologik omillar bilan birgalikda morfologik tuzilmalarda tuproq hosil bo'lishi, beogen jarayonlarda ishtirok etadi va landshaftlarning o'ziga xos morfologik yaruslarini hosil qiladi. Farg'ona viloyatining landshaft tuzilmalari ham uzoq davom etgan geologik-tektonik jarayonlar, iqlimiy va gidrologik omillar ta'sirida shakllangan. Yetakchi omil sifatida esa morfologik asos viloyat landshaftlarining tabaqalanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Farg'ona viloyati xududida landshaftlarning morfologik tabaqalanishida gipsometrik chegaralar nafaqat morfolitogen asosni, balki ular hosil qilgan landshaft tuzilmalarini chegaralarni ham belgilab beradi. Viloyatning So'x tumani va Shoximardon qishlog'i anklaf zonalar hisoblanib, 2000-2500 m, gacha bo'lgan o'rta tog' landshaft yaruslarini hosil qiladi. Litologik tarkibini Devon, Toshko'mir, Bo'r davri yotqiziqlari tashkil etadi. Geomorfologik jihatdan erozion-denudatsion, alyuvial relief shakllari keng tarqalgan, pozitsion holatiga ko'ra shimoliy ekspozitsiyalar katta maydonlarni egallab, 20-30 km radiusda tog' oldi zonasi bilan tutashadi. Yangi tektonik xarakter hosil qilgan relief shakllari surilmalar ko'rinishida So'x va Shoximardonsoy daryolarining o'zanlarida chuqur va tor vodiylar tog' etaklarida kengayib qayir va qayirusti terasalarini hosil qilgan. Tog' oldi zonasi tog'lar bilan tekisliklar o'rtasidagi oraliq zona tashkil qilib alohida-alohida ko'tarilgan geologik tuzilmalardan iborat. Farg'ona viloyatining janubiy qismida Sho'rsuv -Quvasoy yo'nalishida tog' oldi zonasi 12-16 km. li radiusda joylashgan baland adirlar ko'rinishidagi reliefning 5-pog'anasidagi past tog'lar va adirlar zonasini tashkil

etadi. Farg'ona viloyatining tog'oldi zonasi janubiy-g'arbiy qismida Burgandi va Kampirqoq tog'lari xududida yaqqol ifodalanadi. Ularning balandligi 1200 m. va undan ortiq bo'lib ko'pchilik tadqiqotchilar baland adirlar zonasiga kiritishadi. Litologik tarkibini kuchli sementlashgan konglomeratlar oxaktoshlar tashkil etib, Yura, Bo'r, Toshko'mir davrining yotqiziqlari, Paleogen davrining qizil va sariq glinalari landshaftlarning litogen asosini tashkil etadi. Ularning tarkibida organik yotqiziqlarning ko'pligi dengiz muhitida uzoq vaqt qolib ketganligi bilan bog'liqdir. Yog'in-sochin miqdorining kamligi sharoitida adir denudatsion jarayonlar kuchli nurashni yuzaga keltiradi. Qurilish materiallari (gips, asbest, keramzit oxaktosh) va uncha katta bo'lmagan neft va gaz konlari xududning qurilish sanoati negizida o'zlashtirilishiga sabab bo'lgan. Farg'ona viloyatining janubida o'rab olgan adirlar xalqasi alohida morfolandshaftlarni tashkil etadi. G'arbdan sharqqa qarab Sho'rsuv, Qapchig'ay, Chimyon, Quvasoy, Arsif, Tolmozor adirlari 500-800 m. dan 100-1200 m. gacha bo'lgan baland va past adirlar zonasini tashkil qilib, uchlamchi davrning oxiri va to'rtlamchi davrda ko'tarilgan. Adirlar Farg'ona vodiysi uchun tipik cho'l landshaftlari hisoblanib, erozion-denudatsion genezisli daryo va soyliklarning geologik fa'oliyati tufayli kuchli parchalangan, insonlar tomonidan kuchli o'zlashtirilgan bog'-dala tipidagi madaniy landshaftlar hisoblanadi. Landshaftlarning morfolitogen asosini to'rtlamchi davrning So'x va Toshkent yotqiziqlari tashkil qilib, baland adirlar konglomeratli sementlashgan jinslar, shag'alli, lyosli jinslar va alevrolitlardan iborat. Quyi adirlar ko'proq Toshkent, Mirzacho'l qatlamlaridan iborat bo'lib, kuchsiz sementlashgan shag'alli jinslar, alevrolitlar, yuza qismida lyosli jinslardan tashkil topgan. Litogen asosning xilma xilligi tufayli landshaftlarning morfologik tabaqalanishi kuchli, geteorolit landshaftlar murakkab urochishelar va fatsiyalar guruhini hosil qiladi. Farg'ona viloyati landshaftlarining hosil bo'lishi va morfologik tabaqalanishida So'x, Shoximardon, Isfayram daryolarining ahamiyati butun xudud bo'ylab kattadir. Mazkur daryolarning vodiylari yo'nalishi janubdan shimolga tomon davom etib, submeridional yo'nalishda hosil bo'lgan tektonik yoriqlarning yo'nalishiga mos keladi. Shunga ko'ra daryo va soyliklarning morfologiyasi hududning tektonik tuzilishiga mos ravishda flyuvial genezisli landshaftlarni qiyofasini shakllantirgan. Daryo va soyliklar morfologiyasi antklinal va sinklinal strukturalarni kesib o'tish jarayonida o'ziga xos morfolandshaftlarni hosil qilgan. Masalan, So'x daryosi antklinal strukturalarni kesib o'tish joyida chuqur o'zanlar hosil qilgan. Sinklinal strukturalar orqali o'tish joyida esa daryo o'zani kengayib, qayir va terrasalar hosil qiladi, daryo o'zani tarmoqlarga bo'linib, quruq o'zanlar (shleyflar) hosil bo'lgan. Konussimon yoyilmalar Farg'ona vodiysi kabi viloyat xududida ham o'ziga xos landshaftlar hosil qilgan. Chunki daryo va soyliklar adirlar zonasini kesib o'tib delyuvial, prolyuvial va alyuvial jinslarni turli

tartibda yotqizgan. Shunga ko'ra, konussimon yoyilmalarning yuqori, o'rta va quyi qismlari landshaftlarning morfologik tuzilmalari litologik tarkibi, uning qalinligi, egallagan maydoni bo'yicha farqlanuvchi landshaftlardan tashkil topgan. Konussimon yoyilmalar va ularning o'rtalarida, etaklarida qiya tekisliklar joylashgan bo'lib, ularni adirlararo va adir orti qiya tekisliklari ham deb ataladi. Ularning morfolitogen asosini to'liq to'rtlamchi davirning shag'alli, gilli, qumoq, qumloq yotqiziqlari tashkil etib, akumlyativ jinslar turli qalinlikda lekin yuza qatlamlar bir tekisda joylashganligi uchun landshaftlarni morfologik tabaqalanishida murakkablik yo'q. Vertikal tabaqalanishga nisbatan gorizontal tabaqalanish katta maydonlarni tashkil etadi. Hududning to'liq o'zlashtirilganligi qishloq xo'jaligi, seliteb va texnogen landshaftlar tabiiy landshaftlarning morfologik tuzilishini o'zgartirib yuborgan. Farg'ona viloyati landshaftlarining morfologik tuzilishini o'zgarishda dala ekspeditsiya tadqiqotlarimiz, kartografik manbalar, GAT texnologiyalari asosida yaratilgan kartalar asos bo'lib xizmat qildi. Farg'ona viloyati landshaft kartasini 1:200000 masshtabda tuzildi. Landshaftlar kartasini tuzishda V.A.Nikolayev tomonidan ishlab chiqilgan tipologik va regional kartalashtirish usullaridan foydalandik, landshaftlarni morfologik birliklarini ajratishda va tabaqalashtirishda morfolitogen asos, gipsometrik holati, qiyalik darajasi, vertikal va gorizontal tabaqalanishi hisobga olindi. Shunga ko'ra, Farg'ona viloyati hududida joy tipi ko'lamidagi 12 ta landshaft toifalari ajratildi va ularning har biriga morfologik tabaqalanishiga ko'ra tafsif berildi. Landshaftlarning morfologik tabaqalanishida morfolitogen asos bilan birga ularning gipsometriyasi, pozitsion joylashuvi va geokimyoviy rejimi muhim ahamiyatga egadir. Morfolitogen asosning muyyan mezorelef ko'rinishlari asosida Farg'ona viloyati hududida 13 ta joy tiplarini ajratdik, ularning 4 tasi landshaftlarning klassifikatsion sxemasida o'rta va past tog'lar kichik sinflariga kiritiladi. Qiyalik darajasining yuqoriligi yonbag'ir jarayonlarining intensivligini belgilab beradi. Migratsion oqimning bir tomonlama katenar yo'nalishi hosil bo'ladi. Adir oralig'i botiqlarining geomorfologik tuzilishi asosan, tekislik yoki bir oz nishablashgan yassi tekisliklardan iborat. Adirlar neogen va to'rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplangan. Adir orti tekisliklaridan so'ng tog' oldi etaklari mintaqasi boshlanadi.

Farg'ona vodiysining iqlim xususiyatlarini L.N.Babushkin (1953, 1961), Ye.N.Balashova, O.M.Jitomirskaya, O.A.Semyonova (1960) va boshqalarning tadqiqotlarida hamda Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlarining agro iqlim resurslari (1977) deb nomlangan ma'lumotlar to'plamida keng yoritib berilgan. Iqlim sharoitiga ko'ra, Farg'ona vodiysida chala cho'l va cho'l zonalarini ajratish mumkin. Iqlim zonalarining bunday chegaralanishi A.Z.Genusov, B.V.Gorbunov, N.V.Kimberglarning "O'zbekistonni tuproq-iqlimiy rayonlashtirish sxemasi"da (1960)

o‘z aksini topgan. Farg‘ona vodiysini o‘rab turgan tog‘ yonbag‘irlaridan oqib tushadigan katta va kichik daryo hamda soylarning umumiy soni 6500 dan ziyodroqni tashkil etadi. V.L.Shulsning (1958), tasnifi bo‘yicha O‘rta Osiyo daryolari to‘yinish xarakteriga ko‘ra quyidagi to‘rt tipga bo‘linadi:

1. Muzlik va qor suvlaridan;
2. Qor-muzlik suvlaridan;
3. Qor suvlaridan;
4. Qor-yomg‘ir suvlaridan to‘yinadigan daryolar.

Vodiyning yer osti suvlari va ularning gidrogeologik xususiyatlarini tadqiq etishda N.M.Reshetkina (1957), V.N.Kunin (1959), V.A.Geyns (1967), V.M.Legostayev (1975), B.A.Kamalov va I.R.Soliyevlar (2018), O.Qo‘ziboyeva (2022) kabi bir qator olimlarning xizmatlari katta. V.A.Geyns (1967) esa Farg‘ona vodiysining to‘rtlamchi davr yer osti suvlarini o‘rgandi. Farg‘ona vodiysi tuproqlarining ilmiy tadqiqoti haqidagi asosiy ma‘lumotlar B.V.Gorbunov (1957), M.A.Pankov (1957), A.Maqsudov (1979, 1990) va boshqa bir qator tuproqshunos olimlarning ilmiy asarlarida aks etgan. Farg‘ona vodiysining tuproqlari haqida ma‘lum darajada to‘liqroq ma‘lumotlar “O‘zbekiston tuproqlari” monografiyasi (1975), A.Z.Genusov (1983), A.Maqsudov (1979, 1990), K.Boymirzayev (1995) va boshqalarning ilmiy ishlarida bayon qilingan. O‘rta Osiyoda joylashgan Farg‘ona vodiysi o‘ziga xos va murakkab qumli landshaftni o‘z ichiga olgan, tog‘lararo cho‘qqisi bir asrdan ortiq ilmiy izlanishlar mavzusi bo‘lib kelgan. Taxminan 22 000 kvadrat kilometr maydonni egallagan vodiy shimolda Tyan-Shan tog‘lari va janubda Oloy tizmasi bilan yonma-yon joylashgan bo‘lib, uning geomorfologiyasi va iqlimiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadigan tabiiy havzani yaratadi. Vodiyning umumiy maydonining taxminan 15% ni tashkil etuvchi qumli releflar oqim jarayonlari, aeol faolligi va tektonik harakatlar kombinatsiyasi natijasida shakllangan o‘ziga xos muhitni taqdim etadi. 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar asosan tavsiflovchi bo‘lib, asosiy e‘tibor geomorfologik xaritalash va asosiy sedimentologik xarakteristikaga qaratilgan. Ushbu dastlabki urinishlar 20-asrning o‘rtalarida yanada murakkab tahlil usullarining rivojlanishi bilan jadallashgan keyingi tadqiqotlar uchun zamin yaratdi. Bu davrda granulometrik va mineralogik tahlillarni qo‘llash qumli konlarning tarkibi va kelib chiqishi haqida chuqurroq ma‘lumot olish imkonini berdi. Ushbu maqola Farg‘ona vodiysi qumli landshaftlarining tarixiy va zamonaviy tadqiqotlarini chuqur ko‘rib chiqish, asosiy topilmalarni sintez qilish va kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlarini yoritishga qaratilgan. Tabiiy jarayonlar va inson faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish orqali ushbu tadqiqot ushbu dinamik va ekologik jihatdan ahamiyatli mintaqani yanada chuqurroq tushunishga hissa qo‘shishga intiladi.

ADABIYOT TAHLILI

Fargʻona vodiysidagi qumli landshaftlarni oʻrganish oʻtgan asrda sezilarli darajada rivojlandi, turli bosqichlar ilmiy texnika va nazariy asoslardagi yutuqlarni aks ettirdi. Korjenevskiy (1896) kabi dastlabki tavsifiy ishlar kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim boʻlgan asosiy geomorfologik xaritalarni taqdim etdi. Ushbu dastlabki tadqiqotlar vodiyni qumli landshaftlarini birinchi navbatda dala kuzatishlari va choʻkindilarning rudimental tahlillari orqali tavsifladi. 20-asr oʻrtalari granulometrik va mineralogik usullarning joriy etilishi bilan hal qiluvchi davr boʻldi. Xoʻjaevning (1967) ilmiy ishlarida don hajmining taqsimlanishini tahlil qilish uchun statistik usullar qoʻllanilib, vodiylar qumlariga eol va oqim jarayonlarining ikki tomonlama taʼsiri haqida muhim tushunchalar ochib berilgan. Ushbu tadqiqotlar mineralogik tahlillar bilan toʻldirildi, ular kvarts va dala shpatini asosiy komponentlar sifatida aniqladi, bu mahalliy va uzoq manbalar taʼsirida murakkab choʻkma tarixini koʻrsatdi. 1970-1980-yillarda masofaviy zondlash texnologiyalarining paydo boʻlishi bilan landshaft tahlilining koʻlami va ruxsati keskin kengaydi. Karimov va boshqalar (1985) sunʼiy yoʻldosh tasvirlaridan qumtepalarining migratsiya tezligini aniqlash uchun foydalangan, bu qumli muhitning dinamik tabiatini tushunish uchun asos yaratgan. Ularning topilmalari yiliga oʻrtacha 3,5 metr qumtepa migratsiyasini koʻrsatdi, bu keyingi qiyosiy tadqiqotlar uchun muhim boʻlgan statistik maʼlumot. Adabiyotlarda geologik, iqlimiy va antropogen omillarning qoʻshilishi natijasida shakllangan Fargʻona vodiysi qumli landshaftlarining koʻp qirrali tabiati birgalikda yoritilgan. Biroq, ayniqsa, iqlim oʻzgarishi va inson faoliyatining qumtepa dinamikasi va landshaft barqarorligiga uzoq muddatli taʼsirini tushunishda boʻshliqlar saqlanib qolmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Fargʻona viloyatining maʼmuriy chegarasidagi barcha adirlararo, adir orti tekisliklari, konussimon yoyilmalar va ularning oʻrtasidagi pastqamliklar morfogenetik jihatdan bir hil boʻlgan lekin gidrogeologik rejim turlicha boʻlgan akumulativ, tranzit akumulativ landshaftlarni hosil qiladi. Ushbu landshaftlar 7 ta joy tiplarini hosil qiladi. Morfodinamik jarayonlar landshaftlarning pozitsion xolatiga bogʻliq boʻlib yuqori pozitsiyada joylashgan elyuvial landshaftlardan migratsion oqimni qabul qiluvchan geokimyoviy barer (lito, pedo, beogeokimyoviy) lardan tashkil topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Щеглова О.П. Сток взвешенных наносов рек Средней Азии.
2. Xoliqov R.Y., Abduraxmonov D.M. Fargʻona vodiysi paragenetik landshaftlarini morfologik tabaqalanishiga taʼsir etuvchi omillar. Oʻzbekiston Geografiya jamiyati axboroti 52-jild 2018 y. 37-39 b.

3. Xoliqov R., Abduraxmonov D. Landshaftlarning morfologik birliklaridagi vertikal va gorizontal aloqalar. O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 55-jild 2019 y. 31-35 b.
4. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришнинг Меъёрий-Ҳуқуқий Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal*, 266.
5. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. *Экономическое развитие и анализ*, 1(8), 109-114.
6. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 178-186.
7. Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology. *Electrica*, 23(2).
8. Abdufattokhov, S., Mahamatov, N., Ibragimova, K., Gulyamova, D., & Yuldashev, D. (2022). Supervisory optimal control using machine learning for building thermal comfort. *Operations Research and Decisions*, 32(4).
9. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 363-368.
10. Alisherovna, K. (2019). Investment support for the activities of motor transport enterprises and their effective utilization. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(2), 465-471.
11. Mukhitdinova, K. (2022). Increasing the Efficiency of Investment Activities of Automotive Enterprises. *International Finance and Accounting*, 2022(1), 20.
12. Mukhitdinova, K. A. (2020). Analysis of Investment Attractiveness of The Enterprise. *Экономика и социум*, (4 (71)), 73-76.
13. Khuzhakulov, R., Abdimuminov, E. F., & Nabiev, E. S. (2020). Influence of Filling Soil from Pipe Side on Pipe Strength. *Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 1(10), 1-4.
14. Nabiyev, E. (2022). Complexities of Foreign Policy and the Role of Turkey in the System of International Relations. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(3), 416-420.
15. Murtazaev, E. N. (2022). About the compositional structure of plot of war works. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 98-103.